

**GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALARNING
G`YRIQONUNIY MUOMILASIGA QARSHI KURASHNING
KRIMINALOGIK TAVSIFI**

Abdullayev Rustam Tulqinovich

O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi

319-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning g`yriqonuniy muomilasiga qarshi kurashning o'ziga xos xususiyatlari, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning ayrim turlari, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning g`yriqonuniy muomilasiga qarshi kurashish va oldini olish choralari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, narkomaniya, deviant xulq-atvor, giyohvandlikka qarshi kurashish.

Annotation: This article discusses the features of the fight against illicit trafficking in narcotic drugs and psychotropic substances, some types of narcotic drugs and psychotropic substances, measures to combat and prevent illicit trafficking in narcotic drugs and psychotropic substances.

Key words: drug addiction, narcotic drugs, psychotropic substances, drug addiction, deviant behavior, fight against drug addiction.

Kirish. Ushbu taqdim etilgan maqolada mamlakatda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning g`yriqonuniy muomilasiga qarshi kurashning oldini olishga doir faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning g`yriqonuniy muomilasiga qarshi kurashning ta'minlashga ehtiyoj yuqoriligini e'tiborga olgan holda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning g`yriqonuniy muomilasiga qarshi kurashishning yangi va zamonaviy usullarini o'rganish hamda amalyotga tatbiq etish. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning milliy va xalqaro oqibatlarini yaxshiroq tushunishga, mavjud milliy, mintaqaviy va xalqaro giyohvandlikning darajasini to'g'ri baholashga va barqaror kgiyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning g`ayriqonuniy muomilasiga qarshi kurashni ta'minlashga oid bilimlarni shakllantirishga qaratilgan.

Shuningdek, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning hozirgi kundagi turlari narkomaniyaning naqadar keng tarmoqli ekanligini hamda zarar yetkazish doirasi juda ko'pligidan darak beradi. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan foydalanish ko'rsatkichi hozirgi kunda kundan-kunga ortmoqda. Bugungi kunda giyohvand moddalarni g`ayritabiy ravishda yetishtirish va psixotrop moddalarning yashirin ravishda sotilayotgani barchamizga ma'lum. Shundan xulosa

qilishimiz lozimki yosh avlodning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ta'siriga tushib qolish xavfi ortmoqda. Shu sababdan yurtdoshlarimizga ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodga turli xil giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ta'siriga uchramaslik uchun hushyorroq bo'lishga chorlashimiz zarur.

Asosiy qism: Hozirda insoniyat boshiga turli balolarni solib, oilalarni va jamiyatni tazazzulga olib boradigan illatlardan biri giyohvandlikdir. Giyohvandlik vositalariva psixotrop moddalarning g`ayriqonuniy muomilasi oqibatida minglab norasida go'daklar mayib majruh tug'ilmoqda, oilalarda ajrashishlar ko'paymoqda va dunyoda millonlab odamlar hayotdan bevaqt ko'z yummoqda. Eng afsuslanarli jihat shundaki giyohvandlikka mubtalo bo'lgan va psixotrop moddalar ta'siriga tushgan kimsalarning tuzalishi juda ham qiyindir. Hammamiz bilamizki, giyohvandlik vositalarini va psixotrop moddalarni iste'mol qila boshlagan odam, qaysi tipda bo'lmasin, avvalo, unga odat yaratadi. Ammo ma'lum vaqt o'tgach, u mehnatga yaroqsiz bo'lib qoladi. Natijada esa jinoyatga qo'l urishga majbur bo'ladi. Ya'ni navbatdagi giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarni qabul qilish maqsadida o'g'irlikni o'z uyi – oilasidan boshlaydi. Giyohvandlik va psixotrop moddalarning yosh avlod tarbiyasiga, insoniyat kelajagiga katta zarar yetkazishi butun jahon hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Shuning uchun ham bu falokatga qarshi kurash hozirgi kunda yer maydonidagi global muammolardan biriga aylandi. Asr vabosiga qarshi kurashish barchamizning ishimiz. O'zini shu yurt farzandi deb bilgan har bir fuqaro bu harakatdan chetga chiqmasligi kerak. Bu jarayon umummiliy kurashga aylanishi kerak. Shundagina minglab yoshlarning kelajagini, oilalarimiz tinchligini asrab-avaylaymiz. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichining o'ziga xos shart-sharoitlari, aholining katta qismini ijtimoiy yo'qotish giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar iste'moli dinamikasining o'sishiga olib keladi. Turli sabablarga ko'ra mavjud dori-darmonlarga qarshi chora-tadbirlar tizimi barqaror emas va haqiqiy holatga mos kelmaydi. Vaziyatning asosiy xususiyati shundaki, giyohvandlik muammosi va psixotrop moddalar ta'siriga tushish yosh avlod o'rtasida tobora keng tarqalmoqda.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga qarshi kurashish – barchamizning ishimiz. O'zini shu yurt farzandiman, deb bilgan har bir fuqaro bu harakatdan chetda turmasligi kerak. Mazkur jarayon umummiliy kurashga aylanmog'i shart. Shundagina minglab yoshlarimizning kelajagini, oilalarimiz osoyishtaligini saqlab qolgan bo'lamiz.

Bugungi kunda giyohvandlik balosi chegara, o'lchov va qiyos bilmaydigan bir xolatga keldi. Uning kasofatiga yer yuzida ko'plab insonlar hayot bilan erta vidolashmoqda, sog'lig'idan ajralmoqda. Narkamaniya-(yunonchadan olingan bulib Narke-karakxilik ; Maniya- bangilik deb ataladi). Oilalar buzilib giyoxvandlik va psixotrop moddalar bilan bog`liq jinoyatlar soni ortib bormoqda. Xususan yoshlarga

oldiniga shunchaki ko‘ngilxushlik, oddiy qizikish, bolalarcha ermak bilan shug‘ullanish “giyohvanddan bir totib qo‘yish” keyinchalik unga batamom o‘rganish usiz tura olmaslik, uni topish uchun har qanday jinoyatdan tap tortmaslik kabi ulkan jinoyatlarga olib bormoqda. Mutaxassislarning fikricha odam giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalari asiriga aylangach o‘rta hisobda 5 yildan ortiq umr ko‘ra olmas ekan. Biror mamlakat aholisining 7 % giyoxvand moddalar istemoliga o‘tgan bo‘lsa o‘sha mamlakatning kelajagi halokat yoqasida turishi aniqlangan. Giyohvand moddalarga o‘rganib qolish to‘rt bosqichda bo‘lib o’tadi:

1- bosqich. 5-10 minutdan so‘ng boshlanadi. Havotirlik paydo bo‘lib, atrof muhit shubxali ko`rinadi. Bu bosqich qisqa bo‘lib, 5-10 minut davom etadi.

2- bosqich. Eyforiya kuzatiladi, psixosensor buzilishlar o‘sib boradi va asta-sekin ongni to karaxtlikkacha yoki namozshomsimon holatgacha buzilishlari kuzatiladi. Ayrim simptomlarni paydo bo‘lish ketma-ketligi va ifodalanganligi turli individlarda turlicha buladi, lekin shaxs qayta iste’mol qilsa ular unda doimiy bo‘ladi.

3- bosqich. Bu bosqich chalkashlik va lavxali vasvasa bilan boradigan psixotik xolatdir

4- bosqich. Bu bosqich mastlikning tarqalish bosqichidir. Kuchli ochlik va tashnalik bilan kechayotgan astenik holat bilan namoyon buladi. Keyinchalik uzoq (12 soatgacha), lekin behalovat uyqu kuzatiladi. Gashishni chekkanda intoksikatsiya yengil subpsixotik mastlik bilan cheklanadi.

Shunngdek Giyoxvand moddalarning zamonaviy tasnifi shakllantirilgan bo‘lib quyidagicha tasniflanadi:

- 1.Opiy va uning moddalari: morfin, geroin, kodein, omnopon, promedol, pantopon, medaton;
- 2.Xindiston yoki amerikali konoplya: marijuana, gashish, bang, anasha, xurus, gunya, cheres, kafur;
- 3.Kokain: krek, estezi.
- 4.Gallyusinogenlar: LSD, miskalin, psilotsebin, psixolotsin;
- 5.Psixostimulyatorlar: kofein, fenamin, pervitin, sidnokarb, sendetrin
- 6.Sedativ moddalar: seduksen, elenium, tazepam, relanium;
- 7.Barbituratlar: barbamil, nembutal, lyuminal, bromoral, nokseron;
- 8.Alkogol: arok, pivo, vino, konyak, viski, djin, samagon, braga;
- 9.Tamaki;
- 10.Korrektorlar: parkopan, siklodol, nakom;
- 11.Maishiy kimyoning vositalari: laklar, kleylar

Insoniyat tarraqiyotning yangi-yangi cho‘qqilarini zabit etmoqda. Biroq jahonda xalqlar, millatlar kelajagiga tahdid tug‘diruvchi bir qancha omillar hamon saqlanib kolmoqda. Ana shunday xatarlardan biri giyohvandlik balosidir. Global muammoga aylangan ushbu illatga qarshi kurashishda davlatlararo hamkorlik muhim ahamiyat

kasb etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo'liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etmoqda. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko'z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to'g'ri keladi. Shu boisdan, giyohvandlikka qarshi qurashni kuchaytirish maqsadida BMT tomonidan "Narkotik moddalar to'g'risida"gi, "Psixotrop moddalar" hamda "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi qurash tug'risida"gi konvensiyalar qabul qilinib, 1987 yil 7 dekabrdagi 47/112-sonli rezolyusiyasiga ko'ra "26 iyun – Xalqaro narkotik moddalarini suiste'mol qilish va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash kuni" deb e'lon qilingan.

Dunyo bozorida tarqaladigan qora dorining asosiy qismi Afg'onistonda yetishtirilib, uni noqonuniy yo'l bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari orqali G'arbg'a yetkazishga bo'lgan Urinish yildan-yilga kuchayib bormoqda. Shuning uchun yurtimizda narkotik moddalarni iste'mol qilish va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash masalasiga davlat va millatning ertasini hal etuvchi ommilardan biri sifatida qarab kelinmoqda. Ushbu illatga qarshi kurashish maqsadida bir qator qonunlar va xalqaro shartnomalar qabul qilindi.

Jumladan, "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ular prekursorlarining qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazini tashkil etish to'g'risida Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalari va Turkmaniston o'rtaqidagi bitimni (Ostona, 2006 yil 24 iyul) ratifikatsiya qilish haqida", "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi, "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi, "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi, "Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka mubtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida"gi qonunlar qabul qilinishi kelajagi sog'lom yut qurish uchun qo'yilgan eng dadil qadamdir.

So'nggi yillardagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, giyohvandlik qurbanlari: AQSH-5.56mln, Rossiya-4.3mln, Fransiya-3.8mln, Yaponiya-3.7mln, Buyuk Britaniya-3.9mln, Avg'oniston-3.5mln, O'zbekiston-25856 kishini tashkil etmoqda.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 2022
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. –Toshkent. Адолат, 2022. 3.
3. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonuni
4. Giyohvandlikka qarshi kurash: nazariya va amaliyot (ijtimoiy huquqqiy jihatlar)mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T 2002. –163 6. 18.